

A.Amanullayev

TASVIRIY SAN'AT TEKNOLOGIYASI VA NUSXA KUCHIRISH



Namangan

A.Amanullayev

**TASVIRIY SAN'AT
TEKNOLOGIYASI VA
NUSXA KUCHIRISH**

Namangan

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Namangan Davlat universiteti.

Tuzuvchi: Amanullayev Abdunabi Abdimo'minovich
Pedagogika fanlari nomzodi, dos. v.b.

Taqrizchilar: A. Sulaymonov, O'zbekiston Pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti
bo'lim mudiri katta ilmiy xodimi,
pedagogika fanlari nomzodi.

B. Jabborov, Namangan Davlat
universiteti dosenti O'zbekiston Badiiy
Akademiyasi ijodkorlar uyushmasi a'zosi.

Namangan Davlat universiteti «Tasviriy san'at» kafedrasining 2005 yil
29 avgustdagi yig'ilishi (1 bayonnoma), «Fizika-matematika» fakulteti
o'quv-uslubiy kengashi 2005 yil 30 avgustdagi yig'ilishi (1 bayonnoma),
universitet o'quv-uslubiy kengashining 2005 yil 27 sentabrdagi yig'ilishi (1
bayonnoma) da ko'rib chiqilgan va nashrga tavsiya qilingan.

S O' Z B O S H I

Tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish o'quv fani Oliy o'quv yurtlarining «Badiiy-grafika» fakultetlarida o'tkaziladigan mutaxassislik fanlari ichida eng asosiylaridan biri hisoblanadi. Ushbu qo'llanma oliy ta'limning 5140700- «Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi» bakalavr ta'lim yo'nalishi bo'yicha tasviriy san'at o'qituvchilari tayyorlovchi bo'lim yoki fakultet talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan pedagogik kollejlarda va umumiy o'rta ta'lim maktablarining tasviriy san'at ta'lim yo'nalishidagi o'qituvchilari ham foydalanishlari mumkin.

Mustaqillik sharofati bilan rassom ustalar ijodida ham haqiqiy erkin ijodiy uslub, oqim va yo'nalishlar yuzaga keldi. Bunda rassomlar o'zgaruvchan, ramziy va hayolot ruhi yo'g'rilgan asarlar yarata boshladilar. Bularni o'rganish, tahlil qilish bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi oldiga katta mas'uliyat yuklaydi. Bunday muommalardan biri qadimdan ishlagan rassom ustalarimizning ranglar texnologiyasi hamda ishlash usullari haqida chuqurroq nazariy bilimlarga ega emasligidir. Shuning uchun ham muallif tomonidan ranglar texnologiyasi bilan bog'liq ayrim muammolarni hal qilish, oliy o'quv yurtlarining tasviriy san'at o'qituvchisi tayyorlashda o'qitiladigan «Tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish» fanidan ranglar texnologiyasiga oid mazkur qo'llanmani tavsiya etmoqdamiz.

Qo'llanmada V asrda (eramizdan avvalgi) dastgohli rangtasvirning paydo bo'lishi, G'arbiy Yevropa va Vizantiya traktatlari, rangtasvirda ishlatiladigan materiallar va texnologiyasi bo'yicha manbaalar, daraxtlardan olinadigan asoslar, turli xil materiallarning turlicha xususiyatlari to'qima matoli asoslar haqida keng, batafsil ma'lumotlar berilgan.

Qo'llanmadagi har bir mavzular chet el ilmiy tadqiqotchilari tomonidan asoslangan ilmiy manbaalardan foydalanilgan holda yoritilgan.

K I R I S H

Ma'lumki mustaqillikka erishish tufayli tasviriy san'at texnologiyalarini rivojlantirishda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, ranglar texnologiyasida

qadimdan ishlash va tabiatdan qanday olgan kabi zaruriy muammolarga keng o'rin berilmoqda. Rangtasvirda ishlash va rangtasvir yo'nalishi jaddallik bilan rivojlanishi esa yetishib chiqayotgan mutaxassislarning zamonaviy bilim tajribasiga bog'liqdir. Bu borada oliy o'quv yurtlarining «Badiiy-grafika» hamda «San'atshunoslik» fakultetlarida zamon talabiga javob beradigan, har tomonlama yetuk qobiliyatli san'at va muhandislik grafikasi amaliy san'at bakalavr yo'nalishi mutaxassislari tayyorlanishi lozim. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi o'z kasbi bo'yicha keng bilimga ega bo'lishi bilan birga boshqa turdagi rangtasvir, grafika, qalamtasvir, amaliy san'at, masalalarini ham chuqur mushohada qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Har qanday fan bizni o'rab turgan borliq qonuniyatlarini o'rganadi va o'z izlanishlari bilan tabiat bilimini boyitadi.

Oliy o'quv yurtlarining «Badiiy-grafika», «San'atshunoslik» fakultetlarida mutaxassislik fanlaridan rangtasvir, tasviriy san'at texnologiyalari va boshqa mutaxassislik fanlari o'qitiladi va talabani shunday bilimga ega qiladiki, u ranglar bilan ishlash usullari, texnologiyasi haqidagi muammolarni mustaqil yecha oladi. Tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish fani bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining amaliy malakalarini puxtalashtirish, tasviriy san'atning turli materiallari bilan erkin ishlay olish ko'nikmalarini mustahkamlashga qaratiladi. Shuningdek, turli tasviriy san'at ashyolari tarkibi, ularni tayyorlash texnologiyasi, har bir tasvirdan nusxa olish uchun unga mos bo'lgan material ashyoni to'g'ri tanlay olish, rangtasvir texnologiyasini aniqlash kabi malakalarni ham shakllantiradi.

Tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish fanining asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat: akvarel, guash, moybo'yoqlarini qadimdan tabiatdan olinishi, grafik, qalam turlari va ularni tabiatdan olish texnologiyalaridan nazariy bilimlar berish, ushbu qo'llanmamizning asosiy maqsadi qadimgi rassom ustalarimizning tabiatdan ranglar tayyorlash texnologiyalari, rangtasvir texnologiyasi, qadimgi rassom ustalarining rangtasvir asarlari xususiyatlari, miniatyura texnologiyalari restavrasiya qilish, nusxa ko'chirish haqida ilmiy manbaalar asosida talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash maqsadida ma'lumotlar berilgan.

Mazkur qo'llanmada ranglar texnologiyasi haqida ilmiy asoslangan manbaalardan foydalanildi. Ushbu qo'llanmada shu sohadagi ilk urinishlardan biri bo'lgani bois, ayrim kamchiliklardan holi emas. Shuning uchun qo'llanma haqidagi fikr-mulohazalar, tanqidiy fikrlar, taklif va istaklarni muallif mamuriyat bilan qabul qiladi. Aminmizki kelgusida bildirilgan taklif va mulohazalar tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish qo'llanmasini kelajakda yanada boyitadi.

RANGTASVIR TEXNOLOGIYASI

Dastgohli rangtasvirning paydo bo'lishi V asrda (eramizdan avvalgi) faoliyat ko'rsatgan Appolodor, Pliniy so'zi bilan aytganda «Rangtasvir eshigim qoqib, yorug'-soya va optik illyuziya ulug' ustalari kirib keldilar» deya tan olgandi.

Qadimgi mualliflarning aytishicha, Appolodorni skiagraf (soyalarni tasvirlovchi) deb atashgan. Ya'ni bu dastgohli rangtasvirning dastlabki odimlari bo'lsa ajab emas, balki u predmet tasvirini yorug'-soyali tasvirlash asoschisi hisoblanadi.

Shuningdek, Misrda topilgan portretlar bizning eramizning boshlang'ich asrlariga to'g'ri keladi. Bu asrlarda inkaustik rangtasvir naqadar taraqqiy etganligiga guvohlik beradi.

Yevropada rangtasvirning keyingi rivoji xristian dini bilan bog'lanadi.

Xristian dini tufayli qotib qolganlik xristian mifologiyasini ta'siri texnik usullari bo'yicha Vizantiya san'atini pasayib ketishiga olib kelgan.

Uyg'onish asri Italiya va shimoliy Yevropa davlatlarida, birinchi navbatda Niderlandiyada ikonalarini yangidan kartinani asar sifatida tushunish vujudga keldi. Qaysiki bunda murakkab insoniy munosabatlar, odamning dunyo bilan bog'liq ravishdagi boyligi, tevarak atrof va tabiat bilan uzviy bog'liqlikdaligi qadrlana bordi.

Rangtasvir xaqidagi dastlabki traktatlar nashrlari VII asrlarga to'g'ri keladi. XIX asrning o'rtalarida Londonda ingliz tilida dastlabki XII- XVIII asrlarda original yaratilgan Yevropa traktatlari parallel ravishda ingliz tiliga tarjima qilindi. Qiziqarlisi shundaki, rangtasvir texnologiyasi tarixi bilan tarixchilar, vrachlar, arxitektorlar va shunchaki rangtasvir xavasmandlari ham qiziqqan bo'lsalarda ular har doim ham rangtasvir texnikasi bilan tanish bo'lmaganlar faqat ularni zamondoshlarning fikrlari bilan olingan ma'lumotlarini (rekonstruksiya) tartibga solganlar, Masalan: rimlik arxitektor Vitruviy ochiqdan-ochiq aytadiki, ustalar xech kimga o'z yaqinlari qarindoshlari yoki avlodidan ham xech kimga o'rgatmaganlar. Bu haqida O'rta asrlarda reseptlar to'planib quyidagi fikrlar aytilgan. «Nachinayuhim novo'e sochineniye»- boshlovchilarga yangi bayonnoma. «Mayli kimki yangilik yaratsa, hech kimga bermaydi o'g'lidan boshqaga albatta, ya'ni bundan o'zicha u yuqori va adolatli ish qilgan bo'ladi va yana barcha sirlarni ishonchli saqlanishiga kafolatlangandek hisoblaydi».

G'ARBIY YEVROPA VA VIZANTIYA TRAKTATLARI.

Rangtasvir materiallari va texnikasiga oid antik traktatlar bizgacha yetib kelmagan. Ular ayrim mualliflarning mehnatlarida, masalan: eramizdan

avvalgi III-IV asrlarda yashagan grek ensiklopedisti Aristotelning shogirdi Teofrast, eramizdan avvalgi I asrda yashagan grek vrachi Dioskuriyda, Rimlik arxitektor Vitruviy bayonlarida uchraydi. Bu sohada ayniqsa, Pleneyning bayonnomalari (sochineniye) juda qiziqarlidir. Kay Pleney Sekund Starshiy eramizning I-asrida ko'plab harbiy yurishlarida ishtirok etadi. Shimoliy dengiz safarlarida va o'zining Elba, Dunay, Ispaniya va «Tabiiy tarix» - qadimiy ilmiy bilimlar ensiklopediyasida ko'plab katta ma'lumotlar bilan O'rta asr oxirlariga ikki Irakliy va Teofil traktatlari juda qimmatli hisoblanadi. Irakliyning traktati rimliklarning san'ati va bo'yoqlari deb nomlanadi.

O'z davrining rangtasviri va badiiy hunarmandchiligi haqida anchagina to'liq ma'lumot beruvchi «Turli san'atlar haqida yozuvlar» Teofilning yozuvlaridir.


Vizantiyada esa Dionistoning «Yermiyniya» si qimmatli manbaa xisoblanadi. Uning tarjimasi «Cherkov tasvirlari materiallarini qo'shish va tayyorlash» ga to'g'ri keladi va bu yerda

Ikonomis texnikasi qoidalariga to'htalib o'tiladi. Shu davrlarda italiyan rangtasvirchisi Chennino Chennini tomonidan yozilgan «Rangtasvir haqida traktat yoki san'at haqida kitob» asarida ham ajoyib ma'lumotlar bor (1400 y) Chennini traktatining rus tiliga qilingan tarjimasi muqaddimasida A. Ribnikov ta'kidlaydi: XIV-XV asrlarda qilingan nazariya amaliyot bilan hisoblangan va Chenining traktatlar amaliy qonuniyatlari jam etilgan katta to'plam bo'lmasada lekin u qonuniyatlarning katta tajribalar bilan asoslangan, boy rang-barang madaniyati bilan uyg'unlashtirilgan edi.

«Alberti» nomi bilan bog'liq 1435 yilda Florensiyada nashr etilgan arxitektor Leon Batist Alberti tomonidan «Rangtasvir bo'yicha uch kitobi» dan uyg'onish davri traktatlarida ko'p foydalanilgani uning mavqeini oshirdi. Uning qimmatli faqatgina san'atga zaruriy bo'lgan qarashlaridagina emas, san'at falsafasi, bo'yicha masalalarni ko'tarilgani balki uchinchi darajali deb rangtasvir texnikasi masalalariga katta e'tibor berganligidadir.

Alberti traktatlari izidan Antonio Averlino Filaretining «Rasm chizmasi san'ati bo'yicha uch kitob» (1464 y) uning ta'sirida paydo bo'ldi.

Leonardo da Vinchi «Rangtasvir haqida kitob» traktati butunlay boshqa darajani ko'rsatadi. Hunarmandchilik xalqimizga o'zi ma'lum lekin bo'lajak rassomlar endigi odam tuzilishini hamda tabiatni va odamni shunchaki tasvirlash emas balki masofasi, harakati holatini berishdan iborat bo'ladi.



Shuningdek Paolo Lamatsso (XV asr) Paolo Pino «Rangtasvir haqida dialog» 1548y. Mikelandjelo Biondo (Oliy janob rangtasvir san'ati haqida traktati) (1549 y) asarlari va XV asrning birinchi yarmida yaratilgan Djorjo Vazari tomonidan «Hayot yozuvi» (Jizni poznanii) (1550) nomi bilan mashhur muqaddimasi ancha ahamiyatga egadir. Unda Rimdan Berlingacha, Londondan Peterburggacha yashab ijod qilgan katta rangtasvirchilarga xizmat qildi. Shu sababli, badiiy materiallari haqida to'la-to'kis rassomlarning yozishmalari emas yoki kitoblarga rahbarlik qilmay, balki savdo firmalari, ximiyaviy va texnologik jurnallarga xizmat qila boshladi.

RANGTASVIR MATERIALLARI VA TEXNIKASI BO'YICHA (RUS) MANBAALARI

Ikona san'ati qoidalari xristian dini bilan uning an'ana va qonuniyatlari bilan bog'liq ravishda kirib kelgan. Lekin bu san'atga albatta Vizantiya timsollari va Vizantiya an'analari manbaa bo'lib xizmat qilgan.

Qo'lyozma to'plamlari XVI- XVII asrlarda, ko'pchilik qismi esa XVII va XVIII asrlar atroflarida topilgan.

Qadimgi rus rangtasvirchisi 1856 yilda D.Rovinskiy tomonidan yaratilgan ikona tasvirining materiali va texnikasiga kattagina e'tibor qaratgan. Unda texnik xarakterdagi reseptlarni yozish bilan birga 142 ta

buyruq beriladiki, uning fikricha, ikona tasvirini yaratishda rassomning oqilona yozuvi aksini topgan.



1899 yilda N.Petrov XVII asrdan saqlangan qiziqarli qo'lyozma yozuvlari Episkop Nektariyning «Tipik» nomli ishini nashr ettiradi. Bu hujjat manbaasi greklarning an'analaridan kelib chiqadi, u rus urug'i bilan rivojlanadi.

Birinchi rangtasvir malakalari amaliy ravishda rangtasvir komandasi eski rus an'anasi, bo'yoqlarni artish usulidan asta –sekin yangi rangtasvirchilik ustamonligiga o'ta boshladi., XVIII asrning birinchi choragida Pyotr-I chet elga iqtidorlarni jo'natishi bilan rassomlar tayyorlashni birinchi urinishlari boshlanadi. Bu narsa esa, Rossiya Badiiy Akademiyasini loyihasida aks etdi. Buni M. Avramov (1719) va A.Nartovlar (1724) loyiha Petr-I ga berildi. Shunday bo'lsada, (Akademiya trex znamenitix xudojestv) 1758 yilda ochildi. Asrning ikkinchi yarmida birinchi rus tilida san'at to'g'risida moyli bo'yoq bilan rangtasvir ishlash materiallari va texnikasi to'g'risida tushuncha beruvchi kitob yaratildi.

1768 yilda Moskva davlat universitetida «Badiiy xazinaning ochilishi»-deb nomlangan to'plamda ko'plab asarlarda ishlangan moy bo'yoqlar reseptlar haqida fikrlar beriladi.

1789 yilda Peterburgda Arxip Ivanovning «Takomillashgan rangtasvir haqida tushuncha» bayonlari chop etilgan. Badiiy akademiyada bunga talab katta bo'ldi. Ayniqsa bunga D. Leviskiy katta e'tibor qaratadi. Avval 17 taga yaqin so'ngra 368 ga yaqin kitoblar nashrdan chiqarildi. Shuningdek, XVIII asrning oxirida A.Reshetnikov tomonidan «Ixlosmand rassom va hunarmand» kitobi nashr etildi.

ASOSLAR. TURLI MATERIALLARNING TURLICHA XUSUSIYATLARI.

Ko'pgina hollarda qadimda rangtasvir uchun daraxt (taxta), mato, tosh, (devoriy suratlar uchun), metall, qog'oz, pigment, suyak teri va boshqa materiallar ishlatilgan.

Asosning materiallarini aniqlash, uning xarakteri va qayta ishlanishi saqlanishi va yoshi haqida: asarning kelib chiqishi hamda yaratilgan vaqti, shuningdek, uni restavrasiya qilish hamda to'g'ri saqlash uchun zaruriy bo'lgan ma'lumotlarni olishga imkon beradi.

DARAXTLARDAN OLINADIGAN ASOSLAR.

Daraxtlarni asos sifatida rangtasvir uchun qadimdan qo'llab-quvvatlab kelingan. Masalan Pleniyl mustahkam yuzalar sifatida kashtan va yong'oq daraxtlarining asoslarini sanagan. Dastgohli rangtasvir asoslaridan bizgacha yetib kelganlari eramizning I-III asrlariga taalluqli yog'ochga ishlangan tasvirlar-fayum portretlaridir.

Ular qadimgi Misrda XIX yuz yillik oxirlarida topilgan. O'rta asrlar va keyinroq rangtasvir uchun asos sifatida boshqa daraxtlarning taxtalari ham qo'llanilgan. Masalan: italiyaliklar yumshoq daraxtlarni yoqtirganlar.

Chennini esa «Mayin daraxt»- dan olishni tavsiya etadi. Leonardo da Vinchi rang tasvir uchun ko'proq, yong'oq va nokning materiali a'lo ekanligini ta'kidlagan.

Fillandiya va Gollandiya o'simliklari oddiyligi-bir turni egallanishi (dub, buk, ozroq-archa, lipa) va boshqalarning ishtiroki shunga olib keladiki shu davrlarning rassomlari 1630-1640 yillargacha dubdan foydalanib keldilar.

Eski serb ikonalarining asosi uchun, eng avvalo, lipa xizmat qilgan.

Qadimiy rus ustalari asos sifatida odatda lipa, sosna va yel (archa) daraxtalaridan ko'proq va ayrim hollarda buk daraxtlaridan foydalanishgan.

Fayum Portretini tomonidan eng yaxshilarini tadqiq qilganda, u lipa taxtasiga yozilganligini qayd etadi, garchi lipa hozirda Livan va Misrda o'smasa - da, biroq rangtasvirni yuqori darajada bajarilganligi sabab xulosa qilish qiyin bo'ladi. Haqiqatdan ham qadimiy manbaalarni diqqat bilan tadqiq qilish natijasida ma'lum bo'ldiki, lipa Siriyaning shimolida tog'larda bizning eramizning boshlarida o'sgan.

Golland rassomlari doimiy ravishda material tanlashda dub taxtalarida yozishni davom ettirish. Lekin XVII asrlarda ular asosni tanlashda qat'iylikdan biroz yumshadilar. Masalan, Rembrant dub, lipa, kedr, buk, kolonidlaridan olib kelingan qizni daraxt, hamda xolst matoga ishlagan.

Teofil «Yozishma» sida ko'rsatilishicha, mehrob taxtalarini yuzi juda silliq, ya'ni, skobel asbobi bilan ishlagan bo'lishi kerak. Sillqlik haqida Irakliy ham, Flaretsni ham fikrlarini uchratamiz. Yuzani diqqat bilan kuzatib, uni yaxshilab tayyorlash haqida Chennini traktatlarida ham yoziladi.

Palamino davrlarida yuzani tayyorlash ancha oddiylashib qolgan egov bilan randalab, so'ng tekislaganlar tayyor bo'lgan guruntga boshqa ishlov bermaganlar. Rus ikonachisi Nikolay Chudotvorskiy doiraviy ikonani ishlash vaqtida adashib yuzaga chiziqli tasvirni chizib bo'lib, biladiki, taxta asosi gorizontal holida ekan. Ankana juda qattiqligi tufayli usta taxtani burib olib, tasvirni yangidan ishlaydi o'sha davrlarda bir ansamblda-altar poliptix, triptix yoki diptix turli daraxtdan asoslar bo'lganligini ham uchratiladi.

XIV asrda taxtalarni mahkamlashni yangi ko'rinishidagi ixtirolari paydo bo'ldi. Uni taxtaga perpendikulyar tarzida mahkamlash mo'ljallanadi.

Keyinroq, XVIII asrda restavrasiya tajribasi taxtalarni parketlashtirish amalga oshirildi.

TO'QIMA MATOLI ASOSLAR

Matoga tasvir ishlash yog'ochga ishlashdan ancha keyinroq qo'llanildi. Bunday asosga o'tish asarni tashish, olib yurish bilan bog'liq ravishdagina emas balki temperali rangtasvirni moy bo'yoqliga o'tish bilan asoslanadi.

Rangtasvirda xolst mustaqil asos sifatida sanalishidan avval bir necha yuz yillar yog'ochdan rangtasvirga yordamchi vazifasini o'tab keldi. Taxta ustiga qo'yilgan va bor grunt bilan qoplangan xolstga bezaklar ishlaganligi ayrim Misr sarkofaklarida topilgan.

Italiyada taxtaning yuzasi tomoniga matoni yopishtirib qabul qilingan. Hatto yuzani har ikki tomoniga ham mato yopishtirilgan holatlari ko'plab Ispan maktabi asarlarida ham uchraydi. Nektariyning «Tipik» asarida masalan: taxtani ikki uch marta suyuq yelim bilan surkash, lattani ham o'sha yelimga botirib olib taxtani ustiga qo'shish va quritish kerak.

Rangtasvir asosi sifatida xolst Yevropada XV asrda qo'llanila boshlagan. Ramkaga tortilgan matoga «Polotnogo bo'yoqlarni berish usullari» haqida Leonardo da Vinchi «Rangtasvir haqida kitob» nomli asarida batafsil yoritib beradi. Rafaelning keyingi katta kartinalari ham xolstda ishlangan.

XVIII asrda xolst Rossiyada xuddi Yevropa mamlakatlaridagi kabi haqiqatdan dastgohli rangtasvirning asosi, yagona matoli materiali bo'lib qoladi.

Biz fikr yuritayotgan xolst uy sharoitida qo'l bilan to'kish asosida yaratilar edi. 1786 yilda Angliyada huddi qo'lda to'kish usuliga mos birinchi to'kish mexanik stanogi ixtiro qilindi. 1805 yilda Fransiyada naqshli to'qish

stanogi ixtiro qilindi. Shunday qilib, XVIII asrda endi mashinada ishlab chiqarilgan xolst ham ishlatila boshlandi.

Bu xolstlar mustahkam to'qimalari teng o'lchamligi bilan ajralib turdi. Endi shu davrdan boshlab maxsus gruntlangan xolstlar paydo bo'ldi.

O'rta to'qimali ishlab chiqilgan xolstlarga F. Rokotov (1735-1880) va D. Leviskiy (1735-1822) lar birinchi rang tasvirda moy bo'yoqda (matoga) o'z asarlarini yozganlar.

Bir necha yuz yillar ramkalar unsiz bo'lib, yetarli darajada predmet bo'lib qoldilar. Ular eng arzon yog'ochdan chetlariga mix kiritilgan tutash uyalar mahkamlangan, mahkamlagichlar qo'yilgan. Eng avvalgi ramkalardan biri Mantenbining «Xramga eltish» asarida saqlangan, polotnoni kattaligini saqlash uchun, polotnoga taxta qo'yilgan. El Gereko esa, to'liq taxta ustiga tortilgan xolstga ishlagan.

XVIII asrda ko'plab rassomlar ilgaridan ma'lum bo'lgan yog'och mixlardan foydalanganlar. Buni ham uchratish mumkin. Odatdagidek, demak asarlarni ramkaga tortib o'tirilmagan. Shunir orqali ishchi ramkaga xolst tortilib, ish bitgach o'z ramkasiga mix bilan mahkamlangan.

XVIII asrda restavrasiya texnikasiga kiritilgan ahamiyatli yangilik rangtasvirni boshqa asosga ko'chirib o'tkazish bo'ladi.

METALL ASOSLARI

Qadimda rassomlik maktabining ustalari rangtasvir uchun metall asosiga tasvir ishlashda ham katta foydalanganlar.

O'rta asrlarda keng tarqalgan metall asos bu temir edi. U rangtasvir uchun emas, maishiy predmetlarni bezash uchun xizmat qilgan.

XVI asrda Yevropada kam va qimmatli mis plastinkalariga yozilgan asarlar paydo bo'la boshladi. Shubhasizki, bu metall yuzalarga emal bo'yoqlar bilan ishlangan.

Vazariyning guvohligicha, mis plastinkalarga Sibastyano Del Pyembo (1481-1447) va undan oldinroq Karavadjo (1560-1609) va Karrachi (1555-1619) larning ayrim asarlari ham taalluqlidir.

Fransiyada misga Burdon, Bushe, Lankre, Vatto, Fragonlar va boshqa rassomlar ishlaganlar. Paloninoning guvohlik berishicha, ispan rassomlari ham misga moy bo'yoq bilan ishlashni yoqtirganlar.

QOG'OZ VA PERGAMENT ASOSLARI.

Yuqoridagi asoslardan tashqari rangtasvir uchun, xususan, pergament va qog'oz ham xizmat qilgan.

Yevropada VII asrgacha yozuv materiali sifatida papirosdan foydalangan bo'lsalar ham eramizning bir necha yuz yilliklaridayoq yangi material, pergament ishlatila boshlangan.

Pergament rangtasvirga asos sifatida qo'lyozmalarda, o'rta asr ustalari tomonidan, boshlanma tugallanma va inisiallar katta san'at bilan qo'llanilgan. Shuningdek rangtasvirga asos sifatida muzeylarda: Luvrda «Anna Klevskaya» Milanda Krepskiy qoralamasi, Bergmoda Karachchi qoralamalari, Veronezi va boshqalarning ishlarini ko'rish mumkin.

Pergamentga nisbatan rangtasvirda qog'oz va karton ham keng tarqalgan. Xitoyliklardan qog'oz tayyorlash sirini o'zlashtirilgan arablar, uni Yevropa mamlakatlariga o'tkazib yubordilar. Natijada 1154 yilda Ispaniyada Yevropaning birinchi qog'ozi tayyorlandi.

Rossiyada qog'oz XIV asrda Italiyadan tashib keltirilganda bilganlar.

Qog'ozni rangtasvirda qo'llash XII asrga to'g'ri keladi.

Ancha qadimiy hisoblangan rangtasvir ishi qog'ozda (O'rta asrlar miniatyurasini hisobga olganda) Leonardo da Vinchi maktabining Luvrda saqlanayotgan bosh qismi etyudi hisoblanadi.

XVIII va asosan XIX asrlarda qog'oz va kartondan foydalanish amaliy ravishda to'liq barcha rassomlik maktablariga tarqalib ketdi. Masalan: Kronning barcha naturadan ishlangan etyudlari yaxshi yelimlangan tekis qog'ozda bajarilgan.

Rassomlar tomonidan qog'ozda bajarilgan etyudlar dubl qilingan. Shuningdek, qog'ozda Gening ko'plab etyud va eskizlari Shishkin, Vasilev, Savrasovlarning etyudlari ham shu asosda bajarilgan.

Demak, qaysi asosni tanlash avvalo rassomning o'ziga, davriga, uslubga bog'liq. Qanday asosda, qanday material bilan ishlashga qaramasdan rassomning g'oyaviy maqsadi, rangtasvir asari orqali ifodalab berish eng asosiy masala hisoblanadi.

GRUNT. GRUNT TARKIBI VA GRUNTNING STRUKTURASI

Grunt deganda mato ustiga ishlov berish texnologiyalari tushuniladi.

Hozirgi zamon rassomlarining asarlari uzoqqa chidamaydi (xolost) mato ustidagi bo'yoqlar yorilib, ko'chib ketadi bo'yoqlarning xiralashib qolishi hollari uchramoqda, buning asosiy sabablari ikki narsada ko'rinadi:

birinchi sabab: (xolst) mato va qog'ozli (kartonlar) sifatli gruntlanmaganida ;

Ikkinchi sabab; rassomlarimizning rangtasvir texnika texnologiyasini yaxshi bilmasligi yoki tamomila bilmasligidandir.

Ilgari rassom ustalar shogirdlariga eng kamida 6 yil mobaynida bo'yoqlarni tayyorlash jarayoni matolar ustiga ishlov berish, grunt qilish va boshqa ishlarni ustoz sifatida ular mukammal o'rgatib kelganlar.

Rangtasvirda moy bo'yoq bilan ishlashda albatta (xolst), karton beriladi.

MATO XOLSTNI YUZA QISMIGA GRUNT BERISH UCHUN QO'LLANILADIGAN KERAKLI MATERIALLAR.

Ular quyidagilardan iborat:

1. Hayvonlar terisidan. 2. O'simliklar tanasidan.

Hayotimizda baliq yelimi, jelatin, duradgorlik yelimi, kozein, un, kraxmal, dekstrin va boshqa yelimlar mavjud.

Baliq yelimi tayyorlash usuli. Baliqning ustki qismi ohak eritmasida eritilib, ichki go'sht qismi suvda qaynatiladi, ko'pigini olib tashlanadi, so'ngra tunuka patnisga yoki patnisga o'hshash idishga qo'yiladi, asta-sekin sovigandan so'ng yupqa plastinka tarzida qotib yarim tiniq holdagi baliq yelimi tayyor bo'ladi. Uni eng yaxshi grunt o'rnida ishlatish mumkin.

Jelatin mollarning terisidan tayyorlanadi, terining yungidan tozalanadigan ich qismidagi yog'lar nitrat kislota yordamida ketkaziladi. Maxsus asbobda 250 S issiqlikda quritiladi.

Bu yelim 3 xil bo'ladi: oziq ovqat uchun fotojelatin va texnik jelatin.

Oziq ovqat jelatini qog'ozga o'hshash juda, yupqa tiniq rangsiz plastinka ko'rinishda bo'ladi.

Fotojelatin ham yupqa ko'rinishda bo'lib, biroz qo'polroq bo'ladi. Texnik jelatin-rangi qoraroq bo'ladi.

Duradgorlik yelimini tayyorlash usuli quyidagicha: mol go'shti, yog'ini tozalab olinib, chelak yoki tunika bankaga solinadi, ustiga ozgina oxak aralashtirib quyiladi va qaynatiladi. Eritma tayyor bo'lgach uni elakdan o'tkazib, boshqa yassi idishga quyiladi va qotgandan so'ng ma'lum shaklda pichoq bilan kesib 250 S issiqlikda quritiladi. Natijada jigarrang duradgorlik yelimi tayyor bo'ladi. Bu yelimdan grunt uchun foydalanish mumkin.

Gruntovkalar:

Yuzalarni bo'yashga tayyorlashda avval gruntovkadan shuningdek yuzalarni aliflash tarkiblaridan foydalaniladi.

Gruntovkalar-pigmentlar, to'ldiruvchilar va bog'lovchilardan iborat, tarkiblar: ular bo'yash tarkiblaridan pigmentlar kam qo'shilganligi bilan farqlanadi. Gruntovka yuzaga uning «tortish» xususiyatining bir tekis qilish uchun, uning g'ovakligini bir xil qilish. Bo'yoq qatlamini bo'yalayotgan yuzaga yopishishini kuchaytirish maqsadida beriladi.

Ohakli gruntovkalar tashqi va ichki bo'yoqchilik ishlarida suvoq, beton va g'isht yuzalarni ohak bilan bo'yashdan oldin ishlatiladi. Ohak hamiri avval 5 litr suvda suyultiriladi va bu eritmaga qaynab turgan suvda eritilgan osh tuzi qo'shiladi.

Gruntovka turlari.

- 1.Osh tuzi qo'shib tayyorlanadigan ohakli gruntovka:
- 2.Achchiq toshli gruntovka:
- 3.Kuporosli gruntovka:
- 4.Mis kuporosli suyuq gruntovka:
- 5.Sovun – yelimli gruntovka:
- 6.Silikat gruntovka:
- 7.Moyli gruntovka:
- 8.Moyli-emulsion gruntovka.

Yuqorida qayd etilgan, koler ustaxonalarida tayyorlanadigan gruntovkalardan tashqari sanoatda boshqa tarkiblar chiqariladi. Ular ma'lum qoplamalar ostiga va ma'lum yuzalarga ketadigan gruntovka sifatida ishlatiladi.

PF-020-gruntovka

FL-03K, FL-03J gruntovkalar: (GOST-9109-81)

GF-0119 gruntovka (GOST 23343-73)

GRUNTOVKA HAQIDAGI TARIXIY MANBAALAR.

Mashhur rassomlar grunt tayyorlashga katta e'tibor qaratganlar grunt tayyorlash jarayonini ham juda ma'suliyatli sanaganlar. Masalan, italiyalik rassom CH.Chennini rangtasvirchining mashhur bo'lishida qanday grunt berishga qodirligi katta rol o'ynaydi deydi va u yuzani gips bilan berkitib yoki gips bilan ishqalash lozimligini aytgan. Nemis rassomi Albert Dyurer 1506 yillar yozgan xatlaridan birida «Men yuzani tayyorlayman, gruntlayman va uni quritaman, bunga 8 kun ketadi».

Grunt berishdan oldin yuza tayyorlanadi g'adir-budur yoki yarim notekisligini rassom o'ziga mos ravishda tanlaydi qanday yozish rassomning imkoniyatlaridan kelib chiqadi. Masalan Rafaelning dastlabki freskalari grunt yaxshi qurimasdan bajarilgan. Freskada ranglarni bir varag'iga qo'shilishi natijasida yuza ko'rinmasdan bajarilgan devoriy tasviriga hisoblanadi. Rassomlarning tajribasi asosan to'rt xil tarkibda gruntovkalar tayyorlanganligini bilamiz: kley(birlashtiruvchi), gips (o'ldirilgan) pigment, suyuqlik (erituvchi) dan iborat.

Keyinroq rassomlarning rangli gruntlari keng foydalanilgan so'ngroq, matoga oq grunt berish ommalashgan.

CHIZMALAR, CHIZMALARNI O'TKAZISH YO'LLARI.

Har bir san'at asarining asosida albatta chiziqli tasvir yotadi. Bu chizgilar kartinaning asosiy strukturasi belgilaydi. Shu sababli rassomlarning dastlabki fikrlari chiziqlar bilan beriladi. Rassom mavzu ustida ishlarkan uning tasavvurida paydo bo'lgan asar mazmunini chiziqlarni boyitish uchun mukamallashtiriladi. Oxir oqibat o'zi hohlagan g'oyadagi kartinaning chiziqli yechimini topadi.

Dastlabki asarlarida chiziqli tasvirni yuzalarga o'tkazish uchli ignalar bilan olib borilgan, bu ignalar daraxtidan yasalgan. Gohida yuzalar qurimasdan turib olib borilgan. Bu usulni shimoliy Norvegiyada ishlangan 1275 yilda «Cho'qintirish» kartinasini rentgenogramma qilinishi aniqlangan. Bu usul Shimoliy Yevropa va Italiyada ham qo'llanilgan. Yillar o'tishi bilan rassomlar tomonidan yuzaga suyuq bo'yoqlar bilan ham chizgilar berilgan. Chiziqli tasvir sirkul va chizgilar bilan ham bajarilgan. Masalan, Bottichelli, Girlandayo, P'yero dela Franchesko kabi rassomlar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Tekis yuzalarga ko'mir bilan ham ishlangan gruntning materialidan ishlangan va buning natijasida bo'r gips, sanginalar tayyorlangan. Ayniqsa tayyorlangan kuydirilgan ko'mirni Ch.Chennini «olamdagi eng a'lo ko'mir» deb ta'riflagan.

Dastlabki grafik qalamlar Yevropa ustalari tomonidan XVI asrda yaratilgani ma'lum bo'ldi. U o'zining qattiqligi bilan keng tarqalgan. 1970 yilda fransuz ximigi Konteto tomonidan grafit moddasi loy, ko'mir va qo'shiluvchi modda yelimi qo'shib qizitish yordamida yaratilgan.

Grafik qalamni yaratilishi bilan chiziqli tasvirda chizish usullari ham o'zgarib ketdi. Avval qog'ozga, so'ng uni, ikki xil yo'l bilan mato yuzasiga ko'chiriladi. Birinchi usul qalam bilan chizilgan yuzani matoga qo'yib orqasidan yurgizish (**kapirovka**) yo'li bilan, yaxshi qurimagan yuzaga o'tkaziladi. Ikkinchi usulda ko'mir kukunini teshik qog'oz orqali o'tkazish (axta) usuli. Ayrim rassomlar karton tayyorlashdan erinib matoga birdaniga ham ishlaganlar mavjud, bu usul ko'proq oq bo'r bilan va qora qum ko'mirda (yoki uchli asbob bilan) chizilgan.



XV- XVI asrlarda shimol rangtasvirchilari asarlarining laboratoriyadagi tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, masalan, Vanyek asarlari qismlari tekshirib ko'rilganda yuzada qora dog'chalar yoki qora yengil aralashmalarning kuydirilgan suyak, moy bo'yoqli temperatura bilan qoplanganligini ko'ramiz.

Bryussel myanuskriptida (Pyer Leberent Parij 1635) chiziqli tasvir haqida aytdiki: ko'mir bilan chizmoq kerak, konturni belgilash birinchi kompozitsiyani qoralash va figurani umumiy joylarini chizib olish, birinchi chiziqlarni qalam bilan chizib olish, bo'r, ko'mir, rux belilasi yoki kinovlar bilan figurani qog'ozda siyoh bilan chizib olinadi. Birinchi fikrni xolstda belgilash, so'ng shoshilmasdan uning har qismlarini alohida chizib chiqiladi: noto'g'ri joylari o'chiriladi yoki artib tashlanadi, asosiy belgilari doimo boshlangan ishga yo'l boshlovchi sifatida olib qolinadi.

XVIII asrda Rossiyaga moy bo'yoqli rangtasvirning kirib kelishi rangtasvirchilik jarayoni ildizlarini ham butunlay o'zgarishiga, materiallarning ham o'zgarishiga olib keldi.

XVIII asr oxiridagi qo'l yozmalarda aytilishicha moy bo'yoq bilan gruntlangan polotnoga bo'r bilan belgilab olib, bo'yoqlar bilan ishlangan. Badiiy Akademiyaning XVIII asr o'rtalaridagi xisoblaridan ko'rinadiki bu paytlarda rassomlar qora va rangli ko'mir qizil va oq qalam va shuningdek, Rimdan olib kelingan oq va qora bo'rdan foydalanganlar.

RANG. QORISHMALAR



Qadimiy mualliflarning guvohlik berishicha (Dioskurit, Vitruvi, Pleni va b.) Grek, Rim rangtasvir asosida (Voskovoy) quruq tabiiy bo'yoqlar bilan

ishlash yotadi. Bu enkaustika deyiladi. Dastgohli enkaustik rangtasvirning bizgacha yetib kelganlarni er.avv. III asrlarga taalluqlidir. Fayum portretlari deb ataluvchi, yodgorlik portretlari hisoblanadi.

Enkaustik kadimiy xristian ikonaligi uchun xarakterlidir. U xatto temperali rangtasvir rivojlanishi bilan ham yo'qolib ketmagan. Bu haqda XVIII asrlarda yaratilgan Dionistning «Yermeniya» asari Gresiyada saqlanib qolgan. Vosk bo'yoqlarini qo'shilish haqida turli xil fikrlar bo'lsa-da, vosk atalasi, tuxum oqi oz miqdorda (olivka) olif moyini qo'shish bilan tayyorlangan. Voska elastiklik berish uchun xios balzami ham qo'shilgan. Fayum portretlarida birinchi bo'yoqlar grunt ustiga berilgan va umum fon sifatida qoldirilgan. Fayum portretlarini ko'pchilik podmalyovka (ishqalash, qo'shib ishlash) usulida tempera bilan ishlangan deyiladi, lekin to'liq asoslangan emas. Antik mualliflarning ko'rsatishicha bo'yoqlarni to'rtburchak katta kistlar bilan va kauteri deb ataluvchi qizdirilgan metall instrument bilan ishlaganlar. Bo'yoqlarning kamligiga qaramay fayum ustalari rang aralashmalaridan mohirona foydalanganlar. Bunda oq, sariq, qizil va qora asosiy rang turlari hisoblangan. (Rux belilasidan ko'proq foydalanilgan).

Eski xristian ankaustik rangtasvir ikonalar «Vizantiyada, Shimoliy Misr» kichik Osiyodagi tasvirlar fayum portretlaridan farq qiladi. Sinay yarim orollarida avliyo Yekaterina cherkovidagi «Sergey Vakx» (XVI-XVII asr) asari to'liq mukammallashgan ustamonligi bilan bajarilganligi ajralib turadi.

1260-1300 yillarida barcha moyli rangtasvir asarlari oq kley bo'rli gruntga ishlangan.



1509 yili 26 avgustda Dyurer o'zining tayyor kartinasi haqida yozadi: «Men juda katta intilish bilan yozdimki, xuddi ko'rib turganimizdek va u eng zo'r bo'yoqlar bilan yozilgan,

qaysilarini men topa olgan bo'lsam, u aralashtirilgan (podmalyovka) va yaxshi ultra marin bilan yozilgan hamma 5 yoki 6 marta ishlangan. U tayyor bo'lgach, men uni yana ikki marta yozdim, sabab ko'p yillar saqlansin dedim».

Shimoliy Yevropa rassom ustalari uchun ranglarni birin-ketin berkitish sistemasi kiyimlarni chizish harakterlidir. Inkarnatni tadqiq qilishdan ma'lum bo'ladiki tanalar bir qoplam bilan ishlangan. Iyeroni Bosx (1450-1516) biografiyasida Van Mander uning asarni yozish usuli haqida yozadi. «U o'zining asarlarini ayrim hollardagina bir ko'rishda yozadi va shunday bo'lsada uning kartinalari juda chiroyli va bo'yoqlar o'zgarmagan. Huddi katta ustalar singari, u ham gruntlangan doskada chiziqli rasmni bimalol chizib oladigan odati bor edi va undan tashqari tanani yengil ton bilan biriktirardi, ayrim joylarini grunt ham berkinmay qolar edi». Masalan, uning «Krestni ko'tarish» kartinasini taqdim qilishdan ma'lum bo'ladiki, bo'yoqlar xaqiqatdan ham bir martagina berilgan.

Haqiqatdan an'anaviy ko'p qoplamli yozish usuli «Italiyaliklar» tomonidan «Flomand manerasi» deb atalgan. Keyinroq Italiyada bu «Moderin manerasi» va oxirida «Italiya manerasi» bo'lib ketgan. Bu yangi maneraning (impasto) belgilari avval Venesiyaliklarda ko'rindi. Uning boshlanishi Djovanning Bellini (1428-1516) da ko'rindi. Djordjona (1477-1510) va Tisian (1477-1576) larni ijodida rangtasvirda yangilik kiritishga to'g'ri keldi. O'zining ijodi bilan Djotto Italiya san'atiga o'zgarish qilgani kabi va bu yozishning yangi manerasi tezda Italiya ustalari orasida keng qo'llanildi, so'ng Italiya shahri rassomlari orqali chetga davlatlarga tarqaldi boshladi. Yevropa rangtasvirini keyingi rivojlanishini belgilab berdi.

Venesiya maktabi haqida gapirganda shuni yodda tutish kerakki, xuddi shu yerda XVI yuz yillikda Tisian qo'l ostida yangi ilgari ma'lum bo'lmagan rangtasvir shaklini rang bilan yaratish uslubi paydo bo'ldi. Avvalgi avvalo aniq chiziqli suratni chizib olish, so'ng rang bilan qoplab borish (masalan, Rafael shunday ishlagan) o'rniga Venesiyaliklar darhol mo'yqalamni olish va rang bilan ishlayverishni buning oqibatida shakl paydo qilishga intiladilar. Buning asosida esa o'z-o'zidan qattiq va haykaldek (grafik) chiziqli yechimi bo'lmaydi. Buning o'rniga keskinlik, tasodifiy. Uzluksiz rang o'zgarishi va dinamika yorug'lik, rang bilan ifodalash paydo bo'ldi. Yevropa san'ati tarixida rangtasvirni o'zini go'zalligi, tasvirlanayotgan predmetning abstraktlashtirish tasviriy ifodaning yangi ifodasiga aylandi. Keyinroq XVIII asrning oxirida «Jivopisnost» (rang-baranglik) «Rangli yozuv» yoki «Rangli yozuv manerasi» vujudga keldiki, u grafik chiziqli manera bilan qarama-qarshi turdi.

Italiyan barokko rangtasviri juda to'q grunt asosida ishlash, korpusli ishlash, yorug'ni belila bilan to'q soyalar, chuqurlikni yangiroq to'q aralashma

(lessirovka) bilan ishlashda paydo bo'ldi. Rembrand Renesansi plastik formasini, yorug'-soya kontrastlari asosidagi formaga o'tkazib yubordi.

Rubensning rangtasvir texnikasi (1577-1640) butunlay farqli emas. U Italiya tonal uyg'un yozuv prinsipini (Venisiacha variantda) flamant «Ichki yorug'lik» prinsipi bilan mohirona kompromislikdagi uyg'unlashtirganligidadir. Gruntning yorug'i, yoritilmaganligiga asoslanadi. Rubens o'z yo'lidan borib, xolst yuzasini neytrallashtirish silliqilashtirishga huddi taxta yuzasidek harakat qildi.

«Soyalarni yengil yozish kerak»- deb o'rgatadi. Rubens huddi o'sha joyga belila tushib qolishidan saqlaning, hamma joyda yorug' joydan tashqari, belilaning kartinaga tushib qolishi zarardir, agar belila tonning oltin yaltiroq joyiga tushib qolsa kartinangiz issiq bo'lishidan to'htaydi va og'irlashib ketadi, rangsiz bo'lib qoladi.

Rubens tomonidan ishlab chiqarilgan rangtasvir sistemasi tez yozishga imkon beradi, bu bilan ko'plab rangtasvirchilarni o'ziga tortadi. Bushe, Vatto, Fragonar shu kabi italyan rassomlari ushbu yo'nalishga duch keldilar.

XVIII asrning ikkinchi yarmida Yevropa rangtasvirchilarining ijodiga alohida baho berishga to'g'ri keladi. Bular Ispan Goyya (1746-1828) va Ingliz Konstabel (1776-1837) bu ikki ustun manerasi bo'yicha ham, shaxsiy hayoti bilan ham temperamenti bo'yicha ham tarbiya topgan muhitda ham nafaqat eski rangtasvir qonunlarini buzib tashladilar, balki yo'nalish ham olib kirdilar.

XIX asrlarda esa rangtasvir yana o'zining toza va yorqinliranglar bilan ishlash orqali XV asrlarda flomand ustalari tomonidan birinchi bo'lib erishilgan, endi yangi usullari asosida toza bo'yoqlarni optik mazoklar bilan aralashtirishlarni o'zaro yonma-yon qo'yish evaziga erishiladi.

TEMPERALI RANGTASVIR

Devoriy suratlar (mozaika va freska) bilan parallel ravishda Vizantiya miniatyurasi san'atida alohida dastgohli san'atning yangi turi paydo bo'ldi bu ikona, buning ham asosini keyingi ellinistik san'atdan ildizlarini izlash zarur bo'ladi. Vaqtlar o'tishi bilan Vizantiyalik ustalar inkaustik rangtasvir texnikasidan voz kechdilar va ikonachilikdan tempera bilan ishlashga o'tdilar.

Temperali rangtasvir faqat Vizantiyada emas shimoliy Yevropaning alohida masalan Italiyada XVI asrda, Rossiyada XVII asr oxirida qo'llandi. Tempera bo'yog'i bilan Italiya uyg'onish davri ustalari Leonardo da Vinchi, Rafael, Koredjo, Mikelandjelo, Tisian va boshqalar ishladilar. Laboratoriyaning tadqiqoti natijalariga ko'ra tempera va moyli bo'yoq bilan kombinasiyada ishlanganligiga guvoh beradi.

Masalan De Mayerining yozishicha, Van Deyk lazur (natural ultromarin) va yashilni moy bilan emas boshqa pigmentlarni va boshqa (o'simlik yelimi)

gumma va baliq yelimi va quritilgandan so'ng lak o'rniga suyuq tempera bilan surtilgan.

XVIII asrga kelib, tempera bo'yog'i ham qo'llanila boshlandi. Perenetiylug'atida aytilishicha (1757) muallif bog'lovchi sifatida kley va gumma haqida gapiradi u hech qachon teatr dekorasiyalari va bezaklar saroy va xramlardagi bezaklardan boshqalarida qo'llanilmagan.

«Tempera» termini lotincha «aralashtirmoq» ma'nosini bildiradi.

Irakliyning III traktat kitobida aytilishicha, shuni bilmoq zarurki, barcha ranglar (pigmentlar) toza suvda yuvilishi mumkin, qurigach uni tuxum yog'i, moy, kleyli suv, uksus, vino yoki pivo bilan aralashtiriladi. Shunday qilib, aralashgach tempera hosil bo'ladi.

Chennini ikki xil tempera turini yozadi: birinchisi, sariq oq va soki figo daraxtining (figo suti) ya'ni devoriy suratda ishlatuvchi va ikkinchisi tuxum sarig'i-universal, ya'ni devor taxta va temirda ishlatuvchi. Bu shunday bo'yoq ediki bundan Vizantiyalik ertaitsiyan ustalari, Djotto ustozlari, shogirdlari bundan juda ham unumli foydalanib ishlaganlar.

Vazariy (1550) «Rangtasvir haqida» gi nomli asarining kirish qismida yozadi, qaysiki bo'yoqlarni aralashtirganlar, tuxum sarig'i va temperani quyidagicha: tuxumni olib uni pachoqlab, unda figo daraxti nozik qalamchasi (shohi) ni tuyganlar, bunda sut tempera bilan aralashib kraskaga qo'shiluvchi temperani hosil qilganlar va shu bilan o'z asarlarini yozishda foydalanganlar.



Kleyli bo'yoqlar bilan ishlashda gruntlanmagan yuzada Yevropada XV-XVI asrlarda Nederlandiyada va Germaniyada keng qo'llanilgan. Bu haqida kam yozishgan. Shunday bo'lsa-da, katta rangtasvirchi ustalar bu texnikaga qiziqish bilan qaraganlar. Bizning davrimizgacha Piter Breygelning ikki «ko'rlar» (ojizlar) va «Mizantrol» asarlari (Neapol, Milliy galareyada saqlanadi) Dyurerning «Drezden xiyoboni» va «Apostollar boshlari» hamda Guyu Van der Gus, Dirk Bouts asarlari saqlanib qolgan. Yuqorida nomlari sanalganlardan tashqari bu texnikada bajarilgan «Cho'qintirish» (Pokloneniye volxvov) Bryusseldagi ajoyibotlar muzeyida saqlanib qolgan.

Breygining yana bir kartinasi bor. Kartina xolstga ishlangan ikki bo'lakdan tikilgan umumiy o'lchami 121 x 168 sm. Texnologik tadqiqotlar tasdiqlashicha pigmentlarni bog'lovchi sifatida haqiqatdan hayvon kley ishlatilgan.

Ruh belilasidan ham bog'lovchi material sifatida keng foydalanilgan.

MOYLI RANGTASVIR.

Bunday usulni qo'llanishi va paydo bo'lishi ancha murakkab va ko'p aspektli. Garchi nisbatan yaqinlarda namoyon bo'lgan bo'lsada, moyli rangtasvirning rivojlanishi yaxlit evolyusion xarakterda emas, ayrim mualliflar tahlilicha temperani bog'lovchidan asta-sekin o'tmagan va ya'ni XV asrda Yan Van Eyk tomonidan qilingan bu katta burilish ham



emas. Quriguvchi o'simlik moyini antik davrlardayoq rangtasvirda qo'llaganlar Pliniy (Iyanovoye maslo) bu haqda bir necha bor ta'kidlagan. Moyning qo'llanilishi haqida ko'rsatmalar grek vrachi Aetiusning (V-VI asr) bayonnomalarida ham ko'rsatiladi. Ancha to'liq tafsilotlar moy bo'yoq to'g'risida Teofilning «Yozishma» sida (XII asr boshi) va Irakliyning traktatining uchinchi kitobida (XIII asr) berilgan.

Shunday qilib, yozma manbaalar va olib borilgan tadqiqotlar Yevropa shimolida allaqachon va Eykkacha ma'lum bo'lgan. Nafaqat uni bilganlar, balki keng qo'llaganlar ham. Neapolitanlik haykaltarosh Massimo Stansioniy (1585-1656) eslatishicha, uning ona yurtida moy bo'yoq 1300 yildayoq mashhur bo'lgan. Lorensiy Liberti (1378-1455) «Izohlarida Djottoning sifatlarini sanab o'tib u hamma narsada juda unumli ijod qilgan, fresko ishlagan, devorda moy bo'yoqda taxtada ham bimalol ishlaganini ta'kidlagan».

Chennini traktatlari hech shubha qoldirmaydiki, ilk uyg'onish davri ustalari «sariq» tempera bilan ishlagan bo'lsalarda, moy bo'yoqni nafaqat bilganlar va foydalanganlar ham.

Bir necha yuz yil mobaynida moy bo'yoqli rangtasvir italiyan ustalarining e'tiborini tortadi. Filaretiy (1464) bunda o'z kitobidan yozadi: barcha bo'yoqlar (tempera)ni hammasini moyda ham ishlatish mumkin lekin bu butunlay boshqa ish va boshqa usul undan kim foydalanishni bilsa u juda yaxshidir. Bu manerada Germaniyada, ayniqsa, Bryussellik Yan va usta Rojer (Yan va Eyk va Rogir Vander Veyden)lar bu bo'yoqlarni moyda ham juda qoyil maqom qo'llaganlar. Shunday qilib Filaretiy ham Eykning zamondoshi bo'lsada, uning yangi texnika ixtirochisi sifatida hech narsa aytmaydi. Ular bu texnika impressionizmning asosi hisoblanadi.

1870 yili Mono Ajantiyoda butunlay yangi texnika yaratdi. Toza bo'yoqlarni lokal rangtasvir sifatida alohida mazoklar bilan berdi. Buni u asosan manzara janrida ishlagan. Birinchi rus rangtasvirchilari Yevropadan o'rgandilar va lekin dastlabki o'n yilliklar ichida ularda alohida yangilikkirita olmadilar.

MOY BO'YOQLI RANGTASVIR

Moy bo'yoqli rangtasvirning kelib chiqishi va ahamiyati murakkab va ko'p spektrli. Moy bo'yoqli rangtasvirning yaxshi holda evolyusion xarakterda emas, temperali bog'lovchidan asta-sekin moybo'yoqligi o'tgan ham emas va yana bu katta burilish ham emas XV asrda YAN va EYK tomonidan qilingan va

yangi texnika afsonalar deb nomlangan. Quriguvchi o'simlik moyidan antik san'at davridayoq qo'shib ishlaganlar. Pleniy bir necha bor bu haqida takrorlaganidek, Inyan moyi va qoplovchi lakdan bog'lovchi material sifatida foydalanilgan. Barcha bo'yoqlarni bir moy bilan yuvish va xuddi shu moy bilan yoziladi, taxtaga bunda bo'yoqlar berilgandan so'ng quritilib yaxshi quritilgandan so'ngina boshqasi beriladi. Bu albatta kartinalarni yozishda ishlatiladi, bu usul ikonalarini yozishda zerikarli.

Irakliyning traktatida barcha bo'yoqlar o'simlik moyi bilan qo'shiladi deb yozadi. Laboratoriya tadqiqotchilarining ko'rsatishicha Italiya kartinalarida inkarnat XIII-XV asrlarda yashil–yorug' (podmalevka) aralashmadan foydalanish yo'lga qo'yilgan. Yashil gil tuproq toza holda yorug' rux belilasi aralashmasi (binafsha va sariq-yashil ranglarni bir necha qorishmalarini beriladi). To'q podmalyovkaga oxrani suyug'ini birvarakayiga yaxlit berish usulidan huddi Vizantiyalik ustalar kabi Italiyan rassomlari ushbu usuldan ham ancha muvoffaqiyatli foydalanganlar. Hajmni berishda qisqa shtrixovka yordamida berkituvchi badiiy manzaralarni bo'yoqlar bilan asosini oq rang tashkil etgan. Bunda sariqli tempera bilan ishlanar ekan ular Vazari ko'rsatib o'tganidek «Doim mo'yqalamning uchi bilan ishlaganlar». Bu usulda mumkinki, qo'rqmasdan taglik rangga zarar yetkazmay, yashil podmalyovkadan ancha og'ir soyalarni yorug' ranglarga qora yoki jigarrang pigmentlarni qo'shib o'tirmay olish mumkin. Bu yerda yoritishning optik samarasi yashil rangning alohida yorug'-soyalari, binafsha tana rangini qo'shish orqali va neytral fon bilan qoplaganlar.



Italiyaning ikki yuz yillik davrlarida turli badiiy markazlar uchun xarakterli bo'lishi uchun huddi shunday ishlagan edilar, Italiya rangtasvirini sarchashmasi boshida turganlar. Chennini kiyimlarni tasvirlash haqida yozish borasida turli bo'yoqlarni aralashuvi haqida gapirilmaydi. Bu tasodifiy emas, chunki Irakliyning traktatlarida allaqachon rangli qorishmalarning tayyorlash haqida aytib o'tilgan va bunda asosiy e'tibor aralashmalarning qo'llanishi haqida emas, balki ularning tuzilish prinsipi²² haqida to'htab o'tilgan.

Shunday qilib, huddi Chennini kabi Irakliyning traktatlarida ham Rux belilasi bilan turli pigmentlarning aralashmalari haqida gap boradi.

Temperali rangtasvir asarini yaratishning murakkab texnologik jarayoni (jeltkovaya emulsiya) emulsiyani bog'lovchi sifatida foydalanish bilan o'zgarib qolmadi. Garchi, tuxum oqi kamed (gummi) yoki hayvonot kleyi (mezdrov ili ryebyem) Vizantiya, Italiya va rus hamda G'arbiy Yevropa ustalari tomonidan qo'llanilgan bo'lsada kitob miniatyurasi va qog'ozda pergamentda yoki taxtada bajarilgan tuxum sarig'i bilan artish tavsiya etilmaydi.

XII asr boshiga oid bo'lgan Teofilning (Germaniyani shimolida yashagan) «Yozishma» sida shimoliy Yevropa rangtasvir ustalarining texnologik xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim hujjat hisoblanadi. Taxtada rangtasvir ishlashga bag'ishlangan bobida Teofil yozadi: «Agar sen o'z ishingni rivojlantirmoqchi bo'lsang yelim (kamed)» ol qaysiki olcha va olxo'ri daraxtlaridan ishlab chiqariladi va bu aralashma bilan barcha bo'yoq va aralashmalarni, tuxum oqi bilan tozalanadigan suyuq rux belilasi va karlindan tashqari yuvish tozalash mumkin.

Rangtasvirni kleyli bo'yoqlari bilan gruntsiz xolstda ishlash Yevropada XV-XVI asrlarda keng qo'llaniladi. Ayniqsa Niderlandiya va Germaniya uning qamrovligi juda ham mustahkam emasligida izohlanadi. Shunday bo'lsa-da, mashhur rassomlar bu texnikaga ishtiyoq bilan yondoshganlar.

Braygelning shu texnikada bajarilgan «Sig'intirish» (Bryusseldagi noyob san'at muzeyida saqlanadi) kartinasida ham xolstda 121x168 sm kattalikdagi ikki qism tikilgan. Kartina ham pigment bog'lovchi buyum sifatida haqiqatdan ham hayvon kleyi ishlatilganligini texnologik tadqiqotlar ko'rsatadi.

NUSXA OLISH

«Restavrasiya» – so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib, u «tiklanish» degan ma'noni bildiradi. Restavrasiya mashhur madaniyat yodgorligining hayotini qaytarib beribgina qolmay, shuningdek, turli maktab ustalarining badiiy va texnologik usullarini to'la-to'kis o'rganish, bu asar kim va qachon, qayerda u yoki bu asarni yaratilganligini, uning buzilishi sabablarini aniqlab olishga imkon beradi. Restavrasiyaning eng asosiy vazifasi – san'at asarlarini buzilishini to'htatish, asarni eng avvalgi holiga qaytarishdan iboratdir.

Avvalgi vaqtlarda kartina, amaliy san'at buyumiga yoki binolarga ham huddi buyum singari muomalada bo'lingan. Ilgarigi holiga qaytarish mumkin bo'lsada, asar egalari yoki birinchi restavratorlar o'zgariga hech qanday hisobot ham bermas edilar. Kim, o'zlarining oldida ma'lum bir davrning tarixiy, badiiy, badiiy hujjati turgani va ular uni o'zgartirib yuborishga xaqlari yo'q ekanligi xaqida hisobot ham bermasdilar. Restavratorlar o'z hohishicha, erkin asarning shaklini o'zgartiradilar, kartinaning rang lok bilan qoplaganlar. Rangtasvirning eng yuzasida bo'lgan loklarni ayrim xollardagina olib tashlashardilar va nihoyat muallifning tasvirini butunlay ochib bera olmasdilar. Shuning uchun zamonaviy restavrasiyaning prinsipi-asar muallifi va unga aloqasi bo'lmagan holda saqlab qolishdan iboratdir.



Muzeylar qoshidagi restavrasiya tashkilotlar, maxsus laboratoriya va ustaxonalarda rassom restavratorlar bilan yonma-yon fanni turli sohalaridagi mutaxassislar: san'at tarixi, ximiya, biologiya, tilshunoslik, arxeologiya bo'yicha ishlaydilar.

RESTAVRASIYANING TURLI SOHALARI

San'at asari restavrasiyasi oldida uzoq muddatli tadqiqot sikli o'taydi. Mutaxassislar diqqat bilan yodgorlikni saqlanganligi tarixi, uning yaratilganligini ko'rib chiqadi, laboratoriya vaqt daqiqasi kuzatishlarini o'tkazadilar.

Laboratoriya grunt va rang qorishmasini tahlil qiladi, pigment va bog'lovchining tarkibini aniqlab beradi. Ko'plab ultra fioletoviy, infraqizil nurlar, rentgen nuri orqali tadqiqotlarda ko'plab qiziqarli faktlar oladilar, so'ngra restavrasion kengash yakuniy asarni tiklash usullari haqidagi xulosaga keladi. Ishning borishi sinchkovlik bilan hujjatlashtirib boriladi. San'at asarlarini me'morlik yodgorliklarini, monumental, rangtasvir, amaliy san'at, grafika va temperani rangtasvir moybo'yoqli rang tasvir sohalarida olib boriladi.



Restavratorlarning fidokorona katta mehnati bilan san'at asarlarining noyob yodgorliklari saqlab qolinadi. Bu sohada O'zbekistondagi katta boyligimiz hisoblangan madaniy yodgorliklar va amaliy bezaklarni qayta tiklandi va o'z holiga qaytarildi.

DJORDJNING «YUDIF» KARTINASINING RESTAVRASIYASI HAQIDA

Mazkur kartina yog'ochga 1504 yilda yozilgan. O'zining harakatlanish doirasiga ko'ra kartina bir necha bor o'z o'rnini o'zgartirib turdi va katta-kichik restavrasiyalar olib borishga to'g'ri keldi. XVII asrning oxiri XVIII asr boshida Parijda undan to'q lok olib tashladilar. Yoniga yangi yog'och yondarlar qo'shib, avtor rang tasvirini yangiladilar. 1772 yilda polotno «Ermitaj» ga kelib tushdi.

XVII asr oxiri va XIX asr boshida uni muvaffaqiyatsiz olib borgan restavrasiyalarni berkitish maqsadida ko'p asarlarni sariq maxsus bo'yoqlar yordamida va lok bilan ishlashga majbur bo'ldilar. 1893 yilda restavrator A.Sidorov taxtadan xolstga su'niy yo'l bilan ko'chirib olib o'tdi. XVII asr gravyurasiga asoslanib kartina restavrasiya vaqtida yoniga ingichka tirgovichlar qo'yiladi. Kartina tomonida undan biroz yorug'roq rangtasvir bajarilgan. Barcha restavrasiyalar, yozuvlar qayta ishlar barchasi bari-bir jiddiy restavrasiyani talab etadi. Eng oxirgi va eng murakkab ma'suliyatli restavrasiya kartina ustida 1967-1971 yillarda olib borildi. Ermitajning restavrasion kengashi qaroriga ko'ra kartina sariq lokdan tozalanadi va qayta ishlangan joylar lok tagidagi va keyingi yangilangan davrdagi xollar olib tashlanadi. Bu ish restavrator A.M.Malovaga topshirildi.



Tozalov ishi bosqichlari bilan olib boriladi, avvalo sariq va boshqa loklar yozuv va qayta yozuvlar loklar tagidan olib tashlanadi. Undan keyingi avtorning tasvirini ko'p tomonlama berkitib qolgan detallari yaxlit restavrasion yozuv uddalanadi. Ayrim joylarda masalan kartinaning yuqori chap qismida olti qoplamda yozilgan va silliqlangan joylar bor edi.

Asta sekinlik bilan paxtali tomon bilan va maxsus tarkibda namlangan marlida kartinadan lok olib tashlanadi, mikroskop orqali o'tkir skalper bilan yozuvlarni ham bo'shatadilar. Eskizlar ehtiyotkorlik va shoshilmasdan olib boriladi. Bir kunda atigi muallif tasvirda 2-6 sm gina ochiladi.

Restavrasiyadan so'ng bo'yoqlar yorqin va chuqurlashib ketadi. Moviy manzara fonida arxitektura yodgorligi o'rniga minora, orol o'rnida uzoq qoyali

ufq ochildi. Katta daraxt barglari hilpirab qoldi uzoqda daraxtcha ham ko'zga tashlanadi. Devorning o'ng tomoni davom etdi va bilindiki o'simliklar orqada o'smoqda, pastki qismida gullar, o'simliklar, ko'plab toshlar devor chekkasida.

Bundan tashqari restovratorlar osmonda o'ng tomonda, devorda va quyirokda rassomning panja izlarini ham ko'rdilar.

BOG'LOVCHI MATERIALLAR

Kartinalardagi tasvirlarga qarab unda qanday bog'lovchi materiallar ishlatilganligini bilsa bo'ladi. Suvli tarkiblar uchun ishlatiladigan bog'lovchilar kelib chiqishiga ko'ra anorganik va organik bog'lovchilarga bo'linadi.

Anorganik bog'lovchilarga sement, ohak, eruvchi shisha kiradi: ular mineral materiallar asosida tayyorlanadi.

Organik bog'lovchilar qanday materiallardan tayyorlanganligiga qarab hayvonot, o'simlik va sintetik bog'lovchilarga bo'linadi. Hayvonot bog'lovchilariga suyak yelimi, go'shtlardagi yelim, baliq yelimi va kazein yelimi kiradi. O'simlik bog'lovchilariga turli xil kraxmallar, dekstrinlar va un kiradi. Sintetik bog'lovchilarga polimer yelimlar, karboksimetil selluloza, vametil selluloza kiradi. KMS va MS yelimlari bu selluloza efiri natriyli tuzning suvdagi eritmalari.

Suvli bog'lovchilar o'z tarkibidagi suvning bug'lanishi hisobiga ham kimyoviy jarayonlar kabonlanish, gidratlanish kristallanish va boshqa jarayonlar hisobiga ham qotadi. Birinchi holda, odatda qotib qolgan bog'lovchi suv bilan ishlov berilganda yana suyulish mumkin. Ikkinchi holda qotishmada shunday jarayonlar sodir bo'ladiki, natijada bog'lovchining qotgan pardasi dastlabki holatga qaytmaydi.

O'simlik va hayvonot yelimlaridan iborat bo'lgan, ohak qo'shib tayyorlangan bog'lovchilar tashqarini bo'yashda, shuningdek, sernam xonalarni bo'yashda ishlatilmaydi. Anorganik bog'lovchilar ichki va tashqi bo'yoqchilik ishlarida ishlatiladi.

BOG'LOVCHILARDAN FOYDALANISHDAGI QADIMIY MANBAALAR

Qadimiy mualliflarning guvohlik berishicha gresiyalik rangtasvir rassom ustalar quruq va tabiiy bo'yoqlarni ishlatganlar bu eramizning III asriga to'g'ri keladi. Bunda asosiy bog'lovchi sifatida daraxt yelimi hisoblangan. Bu davr rassomlari yelimlardan alohida yuzalarga berib o'sha yuza ustiga rangli qoplamalarning aralashtirish usulidan foydalanganlar. Shuningdek yog'ochlarning tabiiy yopishqoqligidan ham foydalanganlar.

Bizning asrimizga taalluqli «Bolalitepa» yodgorliklardan topilgan fayum portretlari usulida ishlangan tasvirlar topilgan.

«Tempera» termini aralashtirmoq degan ma'noni bildiradi. Irakliyning yozishicha, pigmentlar, avvalo, toza suv bilan so'ng u quritilgan so'ngra tuxum oqi yoki moy kleyi suv uksus, vino, pivo bilan aralashtirilgan bo'lishi mumkin.

Gruntlanmagan yuzalarga yelimli bo'yoqlar bilan ishlash Niderlandiya. Germaniya ustalari tomonidan XV-XVI asrlarida keng qo'llanilgan. Masalan, Piter Bay Gelning «Ko'zi ojizlar» va «Vizantrop» nomli asarlari, Alberxt Dyurerning «Drezden hiyoboni» va «Apostollar boshlari» asarlari ham shu usulda ishlangan.

BUYUK USTALARNING RANGTASVIR TEXNOLOGIYASI

Dastgohli rangtasvirning paydo bo'lishi eramizdan avvalgi V asrning ikkinchi yarmida yashab o'tgan Pleniy ta'biricha: «yorug'-soyalarni va optik illyuziyaning buyuk ustalari Zevksiz va Parrasiylar kirgan rangtasvir eshigi» ni ochib bergan afinalik Appolodor faoliyati bilan bog'lanadi.

Qadimiy mualliflarning aytishicha, Appolodorning zamondoshlari «Skiagraf» «soyalantiruvchi» deb ataganlar, qaysiki, faqat unda dastgohli kartinaning ilk boshlovchisini ko'rish bilan birga, predmetlarning tasvirini yorug'-soya modelirovkasining asoschisi sifatida tan oladilar.

Xususan, eng qadimiy rangtasvir asarlari namunalari davrimizning I – asrlarga taalluqli bo'lib, ular Misrdan topilgan qabrlarga qo'yiladigan portretlardir. Enkaustik texnikada bajarilgan bu portretlar o'sha davrlarda ellinistik rangtasvir ustamolligini yuqori cho'qqisida deb hukm chiqarishga olib keldi.

Keyingi Yevropa rangtasviri rivoji xristianlikni tasdiqlanishiga bog'liq. V-IV asrda antik dunyoqarash va Rim davlatini inqirozi arafasida g'olib keladi. Shu kundan e'tiboran rangtasvir g'oyaviy, badiiy sistemaga kirgan xristian cherkovlari g'oyalari bilan yoritilgan.

Vizantiyada VI asrda san'at o'choqlaridan biri paydo bo'ladiki u real olamni xristian simbolikasi bilan yo'g'rilgan obrazida idrok etishdan iborat bo'ladi.



XI asrda G'arbiy Yevropa san'ati xristian cherkovi ta'sirida an'analari sustlasha borib, olamning o'zgarmasligi xudojo'ylikning mohiyati, odam va xudo munosabatlari sferasi, ular orqali sosial tarixiy faktorlar talabi san'atni va uning oldidagi vazifalarni yangicha tushunish, shaxsiyatni faol namoyon bo'lishiga olib keldi.

Tasodifiy emaski, aynan G'arbiy Yevropada, eng avval, Italiya hududida bu an'analar ancha ifodasini topdi.

Rassomlar Vizantiyalik greklardan olgan dastlabki bilimlarini endi unutishga, taqliddan voz kechishga urinadilar.

Uyg'onish davri san'ati Italiyada hamda Shimoliy Yevropada birinchi navbatda Niderlandiyada ikonani endi kartina asar sifatida tushunish odam munosabatlarini, odamni dunyo bilan boy aloqasi tevarakdagi tabiat predmetlari muhitni aks ettirish ma'qul sanaladi.

MATERIALLARDAN FOYDALANISHNING TURLI TUMANLIGI.

Haqiqatdan ham san'atning rivojidadagi o'sish, eng avvalo, materiallar bilan bog'liqdir. Materialning funksiyasi endi keragidan ortiqroq ahamiyat kasb etib bordi. Taxta garchi haqiqatdan ham kartinani mustahkamlash grunt asos bilan rangli qorishma mahkamlash, lak esa, kartinani tashqi zararlardan asrash bilangina cheklanib qolmadi, ya'ni, Reynolds aytganidek: «Rangtasvir stili-huddi adabiyotdagidek, materiallardan foydalana bilish hoh u so'z yoki bo'yoq bo'lsin, uning yordamida hissiyot va fikrlar beriladi». P.Chistyakov, V. Surikovga «Mazmunga asosan usul: g'oyat texnikani bo'ysundiradi»- deb bejiz aytmagan edi.

MASHHUR RASSOMLARNING RANGTASVIR TEXNOLOGIYASI.

Barcha rassomlar ham o'z ijod usuliga va ishlatish materiallariga ega. Masalan, Van Manderning aytishicha, Gans Goldeyn (1497-98-1543) polotnoga yelimli bo'yoqlar bilan ishlagan. Uning ikkita kartinasi shunday usulda ishlangan va u asari Londondagi po'lat saroyning ganzaysk uyi tantanaviy

zalini bezatib turadi. Ular va ulkan polotno o'n figurali guruh portret interyerida Tomas Morning natural kattaligida uning xotin qizlari qarindoshlari tasvirlangan. Huddi shu texnikada Piter Breygel (1525-1569) va boshqa shimoliy ustalar ishlaganlar.

Rassomlar tomonidan ishlatiladigan asoslar haqida Bionda (1549) yozadi: «Agarki u (rassom) yog'och yoki xolstda ishlasa, tempera yoki moy bo'yoq bilan yohud yelimli bo'yoqmi- bu o'zi metod va rangtasvirdagi rassomning usuli hisoblanadi».

Rassomlar ko'pincha ishchi ramka shnur orqali xolstni tortib olganlar, tayyor kartinani esa ramkaga mix bilan mahkamlangan.

XVIII asrga kelib esa restavrasiya texnikasiga oid yangilik kiritildi, bu rangtasvirning yangi asosga ko'chirib o'tkazishdir. Bu sohadagi hurmatni Italiya va Fransiya egalladi. Garchi, birinchi ko'chirish Italiyada 1720 yilda olib borilgan bo'lsada uni keng yoyish Fransiyaning zimmasiga tushdi.

Badiiy Akademiya ishida XVIII asrda «Golland» qog'oz keyingi hujjatlarda Angliya va Fransiya qog'ozlari bilan yaroslav qog'ozini bahslasha boshlaydi. Qog'ozlarda fil suyagi, velana, bristol, bo'yalgan rangli va gruntlangan turlari mavjud bo'ldi.

Qog'ozning ishlatilishi xaqidagi ma'lumotlar rangtasvirda XII asr boshiga taalluqlidir. Ya'ni Teofil davrida qog'ozni ishlatishni to'liqroq ma'lumotlar Chenninini traktatida yoziladi: qaysiki unda ko'mir bilan ishlash yo'llari qo'rg'oshin shtifda ishlandi. Pero va akvarelda ishlash, rangli qog'ozda ishlash yo'llari va qog'ozni bo'yash texnologiyasi haqida gap ketadi. Traktatning maxsus bo'limi qog'ozga bo'yoqlar bilan ishlash va qog'ozdan miniatyuraviy rangtasvirga qaratilgan.

Misrda topilgan fayum portretlari taxminimizga podmalyovka usulida ishlangan temperali bo'yoqlar bilan hozircha to'liq isboti tasdiqlanmagan.

Ma'lumki, asarning muvaffaqiyati qanday grunt berishga ham bog'liqdir. Senga go'zalligini bermoqchi bo'lgan rang- deb yozadi Lenardo da Vinchi – doim oldindan och grunt tayyorlanadi. Men yaltiroq bo'yoqlar xaqida gapirmoqchiman, yaltiramaydigan bo'yoqlar uchun och rangli grunt ham yordam bermaydi.

Veroneze o'zining katta polotnolarini och-kulrang ko'k gruntida yozgan. Qiziqarlisi shundaki Djordjonening «Yudif oq gruntida» yana uning «Uxlayotgan Venera» si esa rangli gruntida ishlangan. Tisianning Xristos Dinariyem esa oq gruntida ishlangan bo'lib, u ham «Yudif» ham yog'och asosida bajarilgan. Ayrim rassomlar (Tisian, Djordjone, Tinjoretto) hatto qora imprimaturada ishlaganlar.

Rubeneni grunt berishi eski Niderlandiyaliklarnikiga o'hshaydi. Bo'r va hayvonot yelimi va uni yuza qismi sikkativ moyi bilan qoplangan.

Rembrandning rangli ko'rsatgan gruntlari ham imprimaturasini o'zgartirmaydi.

O'ZBEKISTON TASVIRIY SAN'ATIDA TEXNOLOGIK JARAYONLAR

O'zbekiston san'ati boy va rang 30 barang tarixga ega. San'atning dastlabki shakllari O'zbekistonda paleolit davridayoq (eramizdan 13-5 ming yil ilgari) paydo bo'lganligi tarixdan ma'lum ...O'zbekiston janubidagi Zarautsoy dasarida topilgan qoyadagi naqshlar ibtidoiy olamni jonli holatida ko'rib uni oddiy realizm vositasida tasvirlanganligini ko'rsatadi. Ho'kizlar, bug'ular, echkilar tasvirlangan suratlar neolit davriga (eramizdan 5 ming yil ilgari) to'g'ri keladi. Ular O'zbekistonning shimoliy-sharqiy tumanlarida joylashgan Xo'jakent va Bo'stonliq qoyalari o'yib ishlangan.



O'zbekiston amaliy san'atining dastlabki namunalari o'troq dehqonchilik madaniyati paydo bo'lgan vaqtlarda tayyorlangan. Bular terrakota, sopol mahobatli naqshlardan iborat. Neolit davrning ganchkorlik sopol buyumlari sodda naqshlar bilan bezatilgan bo'lib, ular ma'lum bir ramzlarga, sehrli ma'noga ega edi. Terrakota diniy haykalchalar, asosan, dehqonchilik tangrilari bilan bog'liq ayollar siymosidagi haykalchalardan iborat bo'lgan.

Eramizdan avvalgi 2 minginchi yillar oxiri-eramizdan avvalgi 1 ming yillik o'rtalariga kelib (ilk temir davri) hozirgi O'zbekiston hududida uchta tarixiy mintaqa: Amudaryoning o'rta va yuqori oqimida Baqtriya, Qashqadaryo va Zarafshon daryolari oralig'idagi Sug'd va Amudaryoning quyosh yo'nalishida Xorazmda shakllandi..

Eramizdan avvalgi VI asrga kelib, Baqtriya va Sug'd hududlari Ahmoniylar tarkibiga kiradi. Lekin ushbu davrga oid badiiy buyumlar topilmalari bu viloyatlarning o'z badiiy yo'nalishiga egaligi haqida gapirish haqida imkon beradi.

Ahmoniylar davlatining barham topishiga sabab bo'lgan Aleksandr Makedonskiy bosqinchilik yurishlari (er.avvalgi 334-326 yillar) Markaziy Osiyo madaniyati va san'ati tarixida yangi davr ellinizm davri boshlanishdan darak beradi. Ellinistik an'analari Baqtriya san'atida (Dalvarzintepa, Xalchayon, Kampirtepa, Eski termiz) yaqqol namoyon bo'ldi. Sug'd hamda Xorazmning badiiy madaniyatida bir muncha kamroq o'z ifodasini topgan. Antik dunyo davrida me'morchilik, haykaltaroshlik, devorlardagi majoziy rangtasvir san'atining eng ko'p tarqalgan va xarakterli turlari bo'lib qoldi.

Qadimgi O'zbekiston tasviriy san'atining syujet negizlari yagona bo'lgani holda ular turli mintaqalarda turlicha talqin qilinardi. Xorazm san'ati betakror bo'lib, o'ziga xos kompozision rejalarga ega budda mavzulariga oid ishlar uchramaydi.

O'rta asrlar boshlarida O'zbekiston hududining bir qismi Turk xonligi tarkibiga kirgan. Bu davrdagi badiiy hunarmandchilik asosan metallardan yasalgan maishiy buyumlarda o'z aksini topgan bo'lib, ularda sosoniylar va Uzoq Sharq san'ati an'analari o'ziga xos tarzda uyg'unlashgan. O'rta asrlar boshidagi devorlardagi naqshlar tasvirning murakkabligi, kompozisiyaning boyligi va ranglarning xilma-xilligi bilan ajralib turadi.

Sug'dda qora plastika va kandakorlik san'ati ancha taraqqiy etgandi. Bir qator haykallar turlari ishlab chiqilib, ularning bir qismi diniy, bir qismi esa – epik obrazlar bilan bog'langan.

Sug'ddagi jasadlar kuli solingan xoqdonlar har xil qabariq tasvirlar tushirilgan toshtobut qora plastikaning alohida turini namoyon qiladi.

Eramizning VII-VIII asri boshida O'zbekiston hududida tasviriy va amaliy san'atning rivojlanishida o'z ta'sirini ko'rsatgan islom dini keng tarqala boshladi. Markaziy Osiyoda shu munosabat bilan antik va O'rta asrlar boshidagi merosga munosabat o'zgardi.



XI asr o'rtalariga borib san'atda naqshli- bezakli negiz to'la ustunlik qildi. Devorlardagi naqshlar va haykaltaroshlik amalda barham topib, badiiy hunarmandchilik birinchi o'ringa chiqdi. O'zbekiston aholisining maishiy turmushidan keng o'rin olgan, IX – XII asrlarda Buxoro, Samarqand va boshqa bir qator shaharlarda qo'lyozma hattotligi kitoblarni bezash san'ati va muqovachilik g'oyat rivoj topdi. Qadimgi qo'lyozmalarning badiiy bezatilishi jimjimador husnixat bilan nafis naqshlarni o'zida birdek mujassam etgandi. Bu yerda Sharq miniatyura rangtasvirining ajoyib badiiy maktablari tarkib topdi.

XVIII asrda murakkab tarixiy sharoitlar badiiy hunarmandchilikning rivojlanishi jarayonini susaytirdi, lekin madaniy turmushning keskin inqirozi XIX asr boshlariga kelib navbatdagi yuksalish bilan o'rin almashti, ko'pgina markazlar ipak, zarbop ip va jundan tayyorlangan o'simliksimon naqshlar solingan rangi gul bosilgan matolar ishlab chiqarilardi.

XX asrning ikkinchi yarmida qaror topgan tarixiy shart-sharoitlar amaliy bezak san'atini asosiy ijod turiga aylantirdi.

O'zbekiston rassomlarining umumiy texnologik jarayonlarini kuzatar ekanmiz, quyidagi asosiy xususiyatlar ko'zga tashlanadi:

1. Asarlar matoga, xolstga moy bo'yoqda ishlangan.
2. Ayrim kichik hajmdagi asarlar tempera va akvarel guash bo'yoqlaridan foydalanib ham muvoffaqiyatlarga erishilgan.
3. Asarlarning rang qoplami va yaltiroqligi o'rtacha holda, biroq ayrim ustalarning o'zigagina xos bo'lgan hollarda noan'anaviy texnologiyalar uchraydi.
4. Devoriy suratlar esa umumiy monumentallik talablariga mos ravishda bajarilgan. Bu sohada

CH. Ahmarov alohida o'rin tutadi.

Mustaqillik yillari arafasida O'zbekiston tasviriy san'atida yangicha yo'nalish izlanishlari ko'zga tashlanadi.

O'zbekiston tasviriy san'atining yangi odimlari ko'zga tashlandi. Bunda miflar, afsonalar, doston va rivoyatlar asosidagi chizgi va shakllar asosiy vosita sifatida olingan kompozitsiyalar juda e'tiborlidir.

Abris	- chegara chizig'i
Abstraksionizm	- mavhum san'at asarlarini o'z ichiga olgan badiiy yo'nalish.

Avtolitografiya	- rassom o'z asarini toshbosma usulida ishlagani.
Avangardizm	- XX asrda paydo bo'lgan, yangi shakl, uslub, usul va boshqa tasviriy vosi-
	talar asosida ixtiro qiluvchi, izlanuvchi.
Agitplakat	- tashviqot-plakat turi.
Akademizm	- akademik uslubga oid badiiy yo'nalish.
Allegoriya	- majoziy tasvir
Alfresko	- devoriy rasm ishlash usullaridan bir turi.
Ampir	- imperiya uslubi demakdir. Napoleon davrida tasviriy san'at va hunarmand-chilikda hukm surgan badiiy uslub.
Animal janr	- hayvonot dunyosini, jonivorlarni tasvirlovchi tasviriy san'at turi
Antik san'at	- qadimgi degan ma'noni bildiradi. Taraqqiy etgan qadimgi Yunon, Rim san'ati nazarda tutilgan.
Arabcha naqsh shunday atashgan.	- arabiy naqsh. Ovro'poda jimjimador naqshni
Antik san'at	- qadimgi degan ma'noni bildiradi.
Arxitektonika	- mutanosiblik.
Asfalt	- rang turi
Atlant	- osmon gumbazini yelkasiga ko'tarib turuvchi qadimgi Yunon afsonaviy pahlavoni.
Atribusiya	- asarning kim, qachon, qayerda yaratgan ligi va boshqa belgilarini aniqlash.
Axta 1	- Xitoy qog'ozi.
Barbizonliklar	- fransiyadagi fontenblo yonida joylashgan barbizon qishlog'i nomi bilan atalgan bir guruh rassomlar ijodining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan badiiy maktab yo'nalishi.
Barelyef	- bo'rtma tasvir
Barokko	- XVII-XVIII asrning birinchi yarmida Yevropaning ba'zi mamlakatlari va Rossiya me'morchiligi, tasviriy, amaliy san'at, kiyim-bosh, zebziynat, mebel kabi san'at turlarida hukm surgan badiiy yo'nalish.
Bronza	- brinj, mis, qalay, alyuminiy, berilliy, qo'rg'oshin

	kabilar aralashmasidan hosil bo'lgan qotishma.	
Brinjdand	- ya'ni bronzadan yasalgan haykal, buyumlar.	
Badiiy	- borliqni, insonni, uning hayotidagi voqealarni, kechinmalarini o'zaro o'hshatish, shakllantirish va rangorang tasvirlash.	
Badiiy akademiya	- aslida bu nom bilan rassom, haykaltarosh, me'morlar tayyorlanadigan oliy o'quv yurti nomi tushuniladi.	
Badiiy asardagi rang	- badiiy asarda rang, nur, soya va soya va nur qarama shakllarda bir-biriga qarashiligi. ma-qarshi tarzda tasvirlash belgisi.	
Badiiy meros asarlari.	- avlodlar uchun qadimdan qolgan	san'at
Badiiy uslub	- san'atda qo'llaniladigan usul.	
Badiiy mato	- badiiy qilib bezatilgan beqasam, shoyi kabi matolar.	
Bistr	- qalamtasvir turi.	
Buklet	- tahlam nashr, rassom, haykaltarosh ishlari, ko'rgazma yoki biror badiiy asarning qisqacha tafsiloti, bu yaxlit bir varaq qog'oz bo'lib, bir necha marta taxlangan holatda bo'ladi.	
Bo'yoq	- rassomlar va ayrim shaxslar tomonidan rangtasvir asarlari yaratishda va badiiy bezak ishlarida ishlatiladigan maxsus qorishma.	
Vatman	- rassomlik va chizmachilikda ishlatiladigan qalin, oliy nav qog'oz	
Valyor	- rang tusi, rang ohangi degan ma'nolarni bildiradi.	
Variant	- tarixiy, ilmiy yoki badiiy asarning o'zgartirilgan nusxasi.	
Vernisaj	- ko'rgazmaning ochilishi. Dastlab ko'rgazmadan oldin rangtasvir asarlari sathiga lok berish degan ma'noni bildirgan. Bunday odatni fransuz rassomlari boshlab berishgan edi.	

Vitraj	- rangli shishadan ishlangan tasvir,	qashqar
oyna desa ham bo'ladi.		
Guldon tasvir	- qadimgi Yunonda paydo bo'lgan bo'lib, -sopol va chinni guldonlarga tushirilgan tasvir.	
Galereya	- tasviriy va amaliy san'at asarlari saqlanadigan va ko'rgazmalar o'tkaziladigan maxsus bino.	
Gemma	- bo'rtma tasvir, muhr, geometrik naqsh, geometrik unsurlardan tashkil topgan naqsh.	
Germa	- qadimgi Yunon xudolaridan biri Germes nomidan olingan bo'lib, u byust tasviri yoki byust shaklida o'rnatilgan qabr toshi demakdir.	
Gotika	- G'arbiy Yevropada, XII-XV asr me'morchiligi, tasviriy va amaliy san'atda hukm surgan badiiy uslub.	
Gohua	- uslubning nomi. Xitoy milliy an'anaviy rangtasvir uslubi, ko'pincha Tasviriy san'atning hamma turlariga mos keladi.	
Gravyor	- metall, tosh yog'ochga o'yib rasm ishlaydigan yoki nusxa ko'chirish uchun mo'ljallangan tasvirni tayyorlovchi rassom.	
Gravyura	- o'yib ishlangan tasvir yoki o'yib	ishlangan
tasvirdan ko'chirilgan nusxa.		
Grifon	- qadimgi Sharq san'atida uchraydigan	tanasi
arslon. Kallasi va qanoti	burgutsimon	afsonaviy mahluq
	tasviri.	
Grunt	- zamin, tasvir zamini.	
Gruntoverka	- tasvir zaminini tayyorlash.	
Guash	- suv rangdan farqli o'laroq, tiniq rang.	
Dastgohli san'at	- tasviriy san'atning bir turi, san'at asarlarini maxsus dastgohlarga o'rnatib, shunday nomlashgan.	
Dastgohli rangtasvir jamiyati	- P.Vilyams, A.Deyneyka, YU.Pimenov, D.Shterberg kabi rassomlar tomonidan tuzilgan bu guruh hayotdagi	

	yangiliklarni ilg'or badiiy vositalar yordamida ifodalab, faol inqilobiy san'at asarlari yaratishni maqsad qilib qo'ygan va rangtasvirning ifodali vositalari taraqqiyotiga ahamiyat berib kelganlar.	
Devoriy rangtasvir	- ko'pincha devorlari katta o'lchovlarda ishlanadigan tasvirlar.	
Desyudeport rangtasvir yoki Detallashtirish Dizayn	- eshikning tepasi, eshikning tepasiga - batafsillik, ikir-chikirga e'tibor - kundalik hayot, turmushda ishlatiladigan buyumlar, kiyim-kechak, asbob-uskuna, idish-tovoq, mebel va shunga o'hshash narsalarni qulay, chiroyli shakl va rangini yaratish san'ati, yangi shakl-shamoyilni yaratish.	ishlangan haykaltaroshlik asari. berish.
Diptix Janr	- qo'shtasvir, qo'sh lavha. - san'at asarlari turi, ba'zida hayot lavhalarini tasvirlovchi asar demakdir.	
Jaydarirang	- tasvirlanayotgan narsa, buyumning umumiy rangi yoki yakrang deb ham yuritiladi.	
Jilvador	- rangdor. Unga ranglarning tasviriy va ifodali vositalaridan mahorat bilan foydalanish asosida erishiladi.	
Ijod Ikona	- yangilik yaratish jarayoni. - but	
Ikonografiya hodisa voqea, mavzu	- tasvir, rasm xaqida izoh yoki ma'lum shaxs, tasvirlarini ko'rsatuvchi izoh va ularni muntazam ravishda o'rganish.	
Intali	- naqsh degani, o'yma naqsh yoki o'yma tasvir bilan bezatilgan tosh, ba'zida muhr vazifasini ham bajargan.	
Intarsiya yog'ochdan ishlanadigan naqsh,	- inkrustasiyaning bir turi har xil bezak.	rangli
Interyer	- imorat ichi. binoning ichki	ko'rinishi.
Karikatura	- hajviy tasvir.	
Karton	- qog'oz turi, rangtasvir asarning qoralamasi, qalam yoki ko'mir qalamda ishlangan nusxasi.	

Kandakorlik	- misgarlik, mis buyumlariga o'yib ishlanadigan amaliy san'at turi.	
Katalog	- asarlar va mualliflari haqida qisqacha ma'lumotlar beruvchi kitobcha.	
Klassik	- mumtoz, birinchi darajali, namunali. Qadimgi Yunonning miloddan avvalgi V-IV asrlar san'ati dunyo san'ati tarixida eng yuksak va namunaviy hisoblanar edi.	
Klassisizm	- qadimgi Yunon va Rim san'atining an'analari va talabalaridan foydalanib rivoj topgan badiiy yo'nalish. Bu badiiy yo'nalish XVIII asrda taraqqiy etgan.	
Klassik san'at	- mumtoz san'at	
Konservasiya	- saqlash, san'at asarining yaxshi saqlanishiga qaratilgan chora-tadbirlar.	
Kontur	- chegara, chiziq.	
Konsovka	- kitoblarda qo'llanadigan badiiy bezak.	
Kopiya	- nusxa, ko'chirma	
Ksilografiya	- yog'och taxtaga o'yib ishlangan va undan olingan bosma tasvir.	
Konstruksivizm	- badiiy yo'nalish nomi.	
Kontrtitul	- kitob bezagining turi, sarlavhadan keladigan kitob varag'ining nomi.	oldin
Kulrang	- oq va qora rangdan hosil bo'lgan rang turi.	
Kumushrang	- kumush rangiga yaqin rang.	
Ko'rgazma	- badiiy asarlarni namoyish etish.	
Laureat	- lavr tojdori demakdir. Lavr daraxti shoxlaridan yasalgan, gulchambar bilan taqdirlangan shaxs degani. Qadim zamonlarda lavr daraxti shon-shuhrat ramzi hisoblangan.	
Lavkas	- tasvir ishlash uchun tayyorlangan taglik.	
Lessirovka	- sayqallash, pardoqlash kabi rangtasvir	uslubi.
Linogravyura	- linoleumga o'yib ishlangan va undan olingan bosma tasvir.	

Lubok	- yog'och bosma tasvir turi, odatda, tasviriyl san'atda xalq hayotidan olingan ertak va cho'pchaklar mavzusini ifodalaydigan soda va hajviy rasmlar.
Lyunet	- me'moriy bezak. Eshik yoki tuxumsimon ko'rinishida bo'ladi.
Mavritan san'ati	- Ispaniyaning janubida va Afrikaning shimolida o'rta asrlarda tarkib topgan arab san'atining shu yerlik ispan san'ati aralashuvi natijasida hosil bo'lgan san'atdir. Ba'zan Mag'rib san'ati deb ham yuritiladi.
Maishiy janr	- tasviriyl san'atning janrlaridan biri.
Maket	- narsa yoki san'at asarini kichraytirib ishlangan nusxasi. Me'morchilik va amaliyl san'atda ko'proq uchraydi.
Manera	- uslub.
Man'yerizm	- badiiy yo'nalish.
Marina	- dengiz tasviri.
Mastixin	- rassom quroli.
Mesenat	- san'at homiysi. Qadimgi Rim davlatida imperator Avgust davrida o'tgan Mesenat ismli homiylilik qiladigan odam ma'nosida.
Miniatyura	- lotin tilida qizil rangning nomlaridan biri, odatda, qo'lyozmaga ishlangan rasmlar shunday nomlangan. Ko'pincha bu nom bezak va taqinchoqlarga tushirilgan tasvir, shuningdek, ushoq tasvir deb ham yuritiladi.
Moybo'yoq rangtasvir	- moybo'yoqda ishlangan san'at asari.
Molbert	- rassom dastgohi, anjomi.
Monument	- mahobatli haykal, yodgorlik.
Muzey	- tarixiy, tasviriyl va amaliyl san'at asarlari, buyumlar va hokazolar namoyish etiladigan joy.
Mo'yqalam	- qilqalam, rassomlar ishlatadigan yozuv va
tasvir quroli.	
Naturalizm	- tasviriyl san'at yo'nalishlaridan biri bo'lib,
tasvirlovchi, tasvirlanayotgan	narsalarning birinchi galda

tashqi	ko'rinishi, sirtqi suratini tasvirlash lozimligini maqsad qilib qo'yadi.	
Naturshik(sa)	- o'quv ishlarida tasviri ishlanadigan odam.	
Obraz	- qiyofa, siymo, ifoda, talqin.	
Original	- asli. asl nusxasi, asl ko'rinish.	
Ofort	- metallga o'yma tasvir tushirishda ishlatiladigan kislota. Odatda, ofort metallga o'yib ishlangan va undan olingan bosma tasvir.	
Pavilon	- shiypon, ko'pincha doira shaklida qurilgan gumbazli shiypon degan ma'noni anglatadi.	
Palitra	- rasm ishlanayotgan paytda rassom bo'yoqlarini qorishtiradigan yupqa moslama, taxtakach.	
Panorama	- 180 gradusda yoysimon, doira	ko'rinishida
ishlangan rangtasvir	asari bo'lib, u muhim tarixiy voqealar, jangu-jadallar yoki shahar va tabiat manzaralari ifodasidir.	
Pastel	-rangli qalamcha, bo'r. Shu qalam yordamida ishlangan asarlar ham pastel deyiladi.	
Pigment	- turli bo'yoqlar kukuni.	
Pistoqi	- rang turi, pista rangiga yaqin rang.	
Plakat	- tashviqot va targ'ibot maqsadlarida ishlangan rasmlar.	
Plener	- ochiq havo, tabiat, muhit, tabiat manzarasi,tabiat quchog'ida tasvirlash.	
Polotno	- bo'z matoga ishlangan rangtasvir asari.	
Ranglarning	- ranglarning kishida og'ir va vazminligi	yengillik
	taassurotlarini uyg'otuvchi xususiyati.	
Rangshunoslik	- ranglar haqida ta'limotning ham nazariy, ham amaliy tomonlarini o'rganuvchi fan.	
Rasm	- tasvir, shakl, tekis yuzada qo'lda yaratiladi.	
Rassom	-musavvir, suratkash,haykaltarosh,naqqosh, tasvir ifodalovchi mutaxassis.	
Refleks	- narsa va buyumlar rangining boshqasida aks etishi.	

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. I.A.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari.

T. 1998 yil

2. I.A.Karimov. Barkamol avlod orzusi.

T. 1999 yil.

3..Azimova. B. Natyurmort tuzish metodikasi.

T. 1984 yil.

4. Apuxtin O. Tasviriy san'at asoslari.

T. 1978 yil.

5.Amanullayev. A. Xomaki tasvirlar.

Nam. 1992 yil.

6.Bulatov S. S. Ashirova M.O. Amaliy san'at qisqacha lug'ati.

T., Qobuslar bosh taxririya,

1992 yil.

7.Beda. V. Rangtasvir. M. 1968 yil.

8. Borsh K. Qalamtasvir. M. 1974 yil.

9. Vinner A.V. Materiali i texniki jivopisi.

M. 1962 yil.

